

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIYA VA ATROF-MUHIT TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI

Razoqova Hosilaoy Anvarovna

Navoiy davlat pedagogika instituti

Ta'lismi va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lismi)

1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lismi tashkilotlarida bolalarga atrof-muhit va ekologiyaga oid tushunchalarni turli metod, usul, shakl va komponentlar orqali tabiat haqida umumiy tushunchalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: atrof-olam, texnologiya, komponent, metod, motivatsiya, didaktik ta'minot, terapiya

ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ ОБ ЭКОЛОГИИ И ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЕ У ДОШКОЛЬНИКОВ

Разокова Хосила Анваровна

Навоийский государственный педагогический институт

Аннотация. В данной статье в дошкольных образовательных организациях детей обучают понятиям окружающей среды и экологии через различные методы и компоненты

Ключевые слова: среда, технология, компонент, метод, мотивация, дидактика, терапия

EFFEKATIVE WAYS OF FORMING CONCEPTS OF EKOLOGY AND ENVIRONMENT IN PRESCHOOL CHILDREN

Razokova Khosilaoy Anvarovna

Navoi State Pedagogical Institute

Anotation. In this article, the concepts of the environment and ecology are given to children in pre-school education organizations through various methods and components

Key words: Environment, technology, component, method, motivation, didactics, therapy.

O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridayoq mamlakatimizda ekologik masalalar, tabiatda ro‘y berayotgan noxush hodisalar oqibatini bartaraf etish, ro‘y berishi mumkun bo‘lgan bunday vaziyatlarning oldini olish kabi dolzarb masalalarga kata e’tibor berib kelinmoqda. Insonning tabiatga noto‘ri munosabati natijasida yuzaga keladigan salbiy holatlarning oldini olishda ekologik ta’lim tarbiyaning o‘rni nihoyatda kata. Jahonning barcha mamlakatlari kabi O‘zbekistonda ham shaxs va jamiyatning moddiy va ma’naviy madaniyati ekologik mazmunga ega bo‘lmoqda. Bugungi kunda dunyodagi ekologik muammolarni hal etishda aholi, ayniqsa, yoshlarning ekologik madaniyatini yuksaltirish, har bir insonda atrof-muhitga ehtiyojkorona munosabatda bo‘lish, mamlakatning noyob tabiatni, tabiiy boyliklarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash hissini shakllantirish, ekologik holatni yaxshilash va atrof-muhitga salbiy tasirning oldini olish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi

Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga qo‘yilgan umumiy talablarda ham ularning ekologik ma’suliyatini his qilishi, tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga ega bo‘lishi lozimligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Zaminimizdagi tabiiy manbaalarni asrab-avaylashning eng muhum vositalaridan biri o‘sib kelayotgan yosh avlodni tabiatni asrashga oid ekologik bilimlardan xabaror qilish, ularga ekologik tarbiya berish hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davrida bolada atrof-olam haqida ilk taasurotlar paydo bo‘ladi, atrofdagi voqealik va hodisalarning oddiy o‘zaro aloqadorligi qonuniyatlarini anglash ko‘nikmasi shakllanadi. Boalning atrof-olamni anglashida nutqni ham o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Turli faoliyat turlari va muloqotning rivojlanishi ham o‘sadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar so‘zlar orqali berilgan harakatlarni bajaradilar, tushuntirish asosida bilimlarni o‘zlashtiradilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish, buyum va narsalar, jonli va jonsiz tabiat hodisalari haqidagi aniq bilimlarberishni ko‘zlaydi. Ularni o‘zlashtirish jarayonida bilish qobiliyati shakllanadi, tabiatga va atrof-olamga to‘ri munosabatda bo‘lish tarbiyalanadi.

Mamlakatimiz uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘inlarida jumladan, maktabgacha ta’lim tizimida ekologik ta’lim-tarbiyaga kata e’tibor qaratilayotganligi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ham e’tirof etilganligini qayd etishimiz o‘rinli: “O‘zbekistonda ko‘p maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni tabiat va atrof-muhit bilan tanishtirish mashulotlari tashkil qilinadi. Jami maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 40 foizida ekologik ta’lim uchun maxsus xonalar bor va tashkilotlarning 16 foizida bolalar tabiatni parvarsih qilishni o‘rganadigan “Atrof-muhit so‘qmoqlari” tashkil qilingan” [1].

Tabiat bolani ma’naviy boyitishning bitmas-tuganmas manbaidir. Boalar doimo u yoki bu shaklda tabiat bilan aloqada bo‘ladilar. Tabiat bilan muloqotda bo‘lish

bolalarda atrof-olam haqida realistik bilim, jonli mavjudotga insoniy munosabatda bo‘lishni shakllantirishga yordam beradi.

Ekologik ta’lim, ya’ni sog‘lom turmush tarzini tashkil qilishda tarbiyani ikki xil yo‘l bilan amalga oshirish muhum: birinchidan, ekologik ta’lim-tarbiya oilada ota-onalar ishtirokida; ikkinchidan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida turli mashulotlar, ekskursiya, sayohatlar orqali olib borilishi lozim.

Atrof-olam bilan tanishtirish komponentlari quyidagilar hisoblanadi;

- O‘quv-tarbiya jarayonida motivatsion muhit yaratish
- Didaktik ta’minot
- Variativ yondashuv
- Pedagoglarning innovatsion faoliyatları
- Zamonaviy texnologiyalar
- Atrof-olam bilan tanishtirish shakl va vositalari
- Metodlar
- Axborot muhiti

Bularning har biri albatta bolalarning yoshiga mos tanlanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ekologiyaga oid tushunchalar berish maqsadida, o‘quv-tarbiyaviy faoliyat davomida turli “Terapiya” texnologiyalaridan foydalanish mumkun. Ular:

1. Ertak terapiya
2. Qum terapiya
3. Suv terapiya
4. Art terapiya
5. Musiqa terapiya
6. O‘yin terapiya kabilar

Maktabgacha yoshdagи bolalarni atrof-olam bilan tanishtirishning metodik jihatlari quyidagilarni tashkil etadi:

- ❖ Bolalarga savol berish imkoniyatini berish, ularning faolligi va tashabbuskorligini to‘tmaslik
- ❖ Har bir bola uchun muvaffaqiyatga erishish sharoitini yaratish
- ❖ Markazlarda tashkil etilgan turli faoliyat jarayonlarida bolalarga ekologiya haqida ma’lumot olish imkonini yaratish
- ❖ O‘quv-tarbiyaviy faoliyatda har bir bolaning o‘zigagaina xos noyob qobiliyatlari, tajribalariga tayanish
- ❖ Bolalarni kashfiyotchilikka undash maqsadida muammoli vaziyatlar yaratish

❖ Pedagog xodimlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin shakllari, bolalarda atrof-olam haqida qiziqishlarini oshirish uchun didaktik o‘yinlar, harakatli va rivojlantiruvchi mashqlar, ijodiy topshiriqlardan foydalanishlari.

Xulosa qilib aytganda ushbu metodlar, komponentlar orqali bolalarda atrof-muhit haqida umumiy tushuncha berish bilan birga ularga atrof-olamga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish, ona-zaminimizni sevib ardoqlashga o‘rgatish jarayonlari amalga oshiriladi. Atrof-muhitga nisbatan huma, ehtiyyotkorona munosabat va unga ma’suliyat bilan qarash hissini maktabgacha yoshdagi har bir bola shaxsida tarbiyalamoimiz lozim.

Maktabgacha yoshdagi bola o‘z atrofidagi tabiiy-ijtimoiy muhit ta’sirida va mahallada o‘rnatilgan axloqiy-ekologik tartibotlar asosida yashaydi. Zero, yurtimizning go‘zal tabiatni, uning kelgusi holati aynan ularning atrof-muhitga bo‘lgan munosabat orqali belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyorev.R.O, Babayarova G.N “Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim berish”.
2. Muratova G, Tursunbaeva M, Sharafutdinova R “Ekologik ta’lim-tarbiya tushunchalarini shakllantirish tamoyillari”
3. Sultonov.P.S, “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asosolari, “Musiqa” nashriyoti. Toshkent-2007
4. Muftaydinov.Q.X, Qodirov.H.M “Ekologiya”. Toshkent-2020
5. Buriyev.S, Maxkamova.D “Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi”. Toshkent. “Innovatsiya-Ziyo” 2020